



NATURMORTDA MAVZULI KOMPOZITSIYA YARATISHNING BADIY-METODIK ASOSLARI

Xolbekova Baxtigul Abdunabiyevna

Qarshi Davlat Univeriteti tayanch doktoranti

E-mail: baxtigulxolbekova467@gmail.com

Tel: (99) 068 47 60

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19232608>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 26-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 26-mart 2026 yil

KEYWORDS

Naturmort, mavzuli kompozitsiya, yaxlitlik, markaz, muvozanat, ritm, kolorit, yoritish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada naturmort janrida mavzuli kompozitsiya tuzishning asosiy qonun-qoidalari, buyumlarni tanlash va joylashtirishdagi mantiqiy bog'liqlik, rang va yorug'likning asar mazmunini ochib berishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, rassomlik mahoratini oshirishda mavzuli naturmortning tutgan o'rnini tahlil qilingan.

Naturmort - fransuz tilidan olingan bo'lib, "nature morte" – "o'lik tabiat" tasviriy san'atning eng qadimiy va ommabop janrlaridan biri bo'lib, u rassomdan nafaqat texnik mahoratni, balki chuqur falsafiy mushohadani ham talab qiladi. Mavzuli naturmort esa shunchaki buyumlar to'plami emas, balki ma'lum bir g'oya yoki hikoyani so'zlovchi badiiy asardir. Masalan, "O'qituvchi stoli", "Kuz saxovati", "Rassom ustaxonasi" kabi mavzular buyumlar orqali insonning hayoti, kasbi yoki kayfiyatini ifodalaydi. Mavzuli naturmortda birinchi navbatda g'oyaviy yaxlitlik bo'lishi shart. Bu esa shunchaki buyumlarning chiroyli joylashuvi emas, balki ularning mantiqiy, mazmuniy, va badiiy jihatdan bir-birini to'ldirishidir. Kuzatuvchi naturmortga qaraganda, undagi har bir detal nima uchun aynan shu yerda turganini va ular birgalikda qanday mazmun anglatayotganini his qilishi kerak. Misol uchun, "Rassom ustaxonasi", mavzusida mo'yqalamlar, bo'yoq idishlari, va palitra bo'lishi mantiqiy. Agar u yerga kutilmaganda oshxona pichog'i qo'shilsa, g'oyaviy yaxlitlik buziladi. Har bir buyum o'zining shakli, fakturasi ya'ni moddiyligi va o'lchami bilan asar umumiy ruhiga xizmat qilishi lozim.



1-2 rasmlar. “Rassom ustaxonasi” nomli naturmort.

Kompozitsion markaz - bu asarning tomoshabin e'tiborini birinchi bo'lib tortadigan va g'yaviy mazmunini ochib beradigan asosiy qism. Uni to'g'ri belgilash uchun bir necha samarali usullar mavjud. Markaz har doim ham rasmning geometrik o'rtasida bo'lishi shart emas. Aksincha, biroz chetda joylashgan ob'ekt dinamikroq ko'rinadi. Inson ko'zi atrofdan ajralib turadigan narsani tez ilg'aydi. Masalan, kulrang fondagi yorqin qizil nuqta, to'q fondagi yorug' shakl yoki aksincha yoki ko'plab kvadratlar orasida bitta doira. Rasm ichidagi chiziqlar esa tomoshabin nigohini asosiy obyektga yetaklab borishi kerak. Buni “vizual yo'l” ham deb atashadi. Asosiy ob'yektni boshqalarga nisbatan yirikroq tasvirlash orqali uning muhimligini ko'rsatish mumkin. Ammo ba'zan juda kichik ob'ekt ham katta bo'shliq markazida tursa, diqqat markazga aylanadi. Markaziy obyekt boshqa qismlarga qaraganda aniqroq, boyroq va mayda detallari bilan ishlanishi lozim. Orqa fon esa odatda xiralashtiriladi.

Asarning asosiy g'oyasini ochib beruvchi bosh element kompozitsion markaz deb ataladi. Markaz har doim ham qog'ozning geometrik o'rtasida bo'lishi shart emas. Uni ajratib ko'rsatishning bir necha yo'llari bor: Kompozitsiya asrlar mobaynida shakllangan qonunlar va qoidalar asosida quriladi. Uning qonun qoida va usullari o'zaro bog'liq bo'lib, kompozitsiya ustida ishlash jarayonida unga barcha holatdagi harakatlar ta'sir etadi. Ilg'or g'oya maqsadlarini ishonarli, tasirchan ifodalashda asar yaxlidligiga amal qilgan holda va badiiy san'atning barcha imkoniyatlaridan o'rinni foydalana olish talab etiladi. Badiiy asar yaratishning turli usul va qonuniyatlari, uning qurilmasi bilan tanishib chiqar ekanmiz, bunda kompozitsiyani qonuniyat va usullar asosida ifodalash ekanligini ilg'ab olamiz.

Kompozitsiyaning asosiy g'oyasi kontrastlar orqali, ya'ni yorug'lik va qorong'ulik, ruhiy ko'tarinkilik va tushkunlik, sahiylik va baxillik, quvnoqlik va g'amginlik, yangilik va eskilik, sokinlik va harakatlar orqali ifodalangan bo'lishi mumkin. Kontrast o'zining universal imkoniyatlari bilan yorqin va ma'nodor san'at asarlari yaratishda beqiyos asqotadi. Kompozitsiyadan markazni ko'rsatish uchun tasvirning muhim elementi oltin kesim nisbatiga to'g'ri keladigan holda ya'ni 1/3 nisbatda joylashtiriladi. Agarda uyg'unlikka erishish uchun tasvirlanayotgan obyektlarning nisbiy munosabatlari oltin kesim qoidasi asosida qurilishi lozim. Ikkita va undan ko'proq kompozitsion markazlar berilgan kartinalar orqali bir hil vaqtda bo'lib o'tayotgan bir necha voqealarni ko'rsatish mumkin. Asardagi asosiy voqeani ochib berish

uchun bir necha vositalardan ham foydalanish mumkin. Masalan, “Izolyatsiya” priyomidan asosiy tasvirni boshqa predmetlardan ajratib tasvirlashlar asosiy o’lcham va rangni ajratib tasvirlash qo’llaniladi. Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarini katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur.

Muvaffaqiyatli kompozitsiyada har doim asosiy urg’u obykti joylashgan kompozitsion markaz mavjud. Boshqa barcha predmetlar atrofida joylashgan bo’lib, kompozitsion markazga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Kompozitsiya markazi - bu sizning kompozitsiyangizda birinchi navbatda tomoshabin e’tiborini tortadigan joy. Bu eng muhim joy. Qolgan hamma narsa, kompozitsiyaning barcha boshqa elementlari kompozitsion markazga va undagi g’oya mavzusiga bo’ysunishi kerak. Asar g’oyasi mavzusi bilan bir biridan o’lchamlari va shakli bilan ajralib turishi mumkin: Turli o’lchamdagi buyumlar va predmelardan tashkil topgan natyurmortda bir qarashda ko’zimiz katta hajmdagi ko’zaga tushadi. Uning hajmi diqatimizni birinchi bo’lib o’ziga tortadi. Demak kompozitsiyada hajm ham mavzu g’oyasini ochishda muhim sanaladi.



1-2 rasmlar. Mevali natyurmort.

Turli o’lchamdagi va bir biriga yaqin ranglardagi notekis shakldagi daraxtzor orasida tekis chiziq va shakldagi kichik uyning ko’rinishi tasvirlangan manzara. Ushbu manzaraga bir qarashimizda diqatimizni uy tortadi. Uning shakli tasvirda yagona ajralib turuvchi shakldir. Moybo’yoqli rangtasvir uchun matoda ko’mir yordamida yorug’ va soyalar bilan qalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarni hajmdor shakli yorug’ soyalar bilan qurilsa qalamtasvir aniq ko’rinadi. Tayyor bo’lgan tasvirni tashqi ko’rinishlari tush bilan chizib chiqib, ko’mirni esa latta bilan qoqib tashlanadi. Shunday qilinsa bo’yash uchun zarur bo’lgan natyurmortning aniq ko’rinishi qoladi. Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish

zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha albatta metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

Yorug'lik - buyumning hajmini (3D ko'rinishini) ko'rsatib beruvchi asosiy vositadir. Mavzuli naturmortda yon tomondan tushuvchi yorug'lik eng samarali hisoblanadi, chunki u nur-soya bosqichma-bosqichligini va buyum fakturasini aniqroq ko'rsatadi. Shuningdek, buyumlar orasidagi havo muhitini his etish uchun orqa fon va oldingi plandagi buyumlar o'rtasidagi rang farqlariga e'tibor berish lozim. Ranglar gammasi - bu shunchaki bo'yoqlar to'plami emas, balki rassomning dunyoga bo'lgan munosabatini, uning vizual hikoyasini va emotsional xabarini tomoshabinga yetkazuvchi kuchli vositadir. Kompozitsiyadagi barcha elementlarni ranglar orqali bir-biriga bog'laydi va vizual uyg'unlikni yaratadi. Tomoshabinda ma'lum bir his-tuyg'uni uyg'otadi masalan, qizil rang ishtiyoq yoki xavfni, yashil esa tinchlik yoki umidni anglatishi mumkin. Asarning asosiy g'oyasini kuchaytiradi va unga qo'shimcha ma'no beradi. Uni anglash real voqelikni chuqur va kompleks idrok etishga yordam beradi. Ranglar asarning emotsional holatini belgilaydi. "Eski xotiralar" mavzusidagi naturmortda jigarrang, badiiy lavha, kabi bosiq, xira ranglar ishlatilsa, "Bahor nafasi" mavzusida yorqin yashil, pushti va moviy ranglar ustunlik qilishi maqsadga muvofiq. Rangli reflekslar ya'ni bir buyum rangining ikkinchisida aks etishi asarning badiiy qiymatini oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish lozimki, yuqoridagi qonunlarga rassom faqat o'z munosabatini bildirsa, tomoshabinga tushunarli bo'lgan asar yaratishi mumkin emas. Chunki tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri bu insonlar orasidagi muomala vositasi bo'lib xizmat qilishdan iboratdir. Mavzuli naturmort ustida ishlash rassomdan nafaqat ko'z bilan ko'rishni, balki aql bilan tahlil qilishni talab etadi. Kompozitsiya qonuniyatlariga amal qilingan holda yaratilgan asar tomoshabin bilan muloqotga kirishadi va unda ma'lum bir fikr yoki tuyg'u uyg'otadi. Ushbu qonuniyatlarni o'zlashtirish tasviriy san'at ta'limi olayotgan yosh mutaxassislar uchun ijodiy kamolot poydevori bo'lib xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar / References:

1. Камолов И.Б. Основные факторы творчества у студентов - Наука и Мир, 2019.236-239 с.
2. I.B.Kamolov. Kreativ loyihalashni faollashtirishning pedagogik-psixologik aspektlari. Inter education & global study, 671-679.2025.
3. Xolbekova.B.A. Tasviriy san'at asarlarini idrok etishning turli oqimlardagi ko'rinishlari. ilm-fan va texnologiyalar jurnali. sciencetech.uz - B 218-221
4. Xolbekova.B.A. Naturaga qarab rasm chizish orqali real voqelik tushunchalarini shakllantirishning yo'llari. "Interpretation and researches" xalqaro ilmiy jurnali 3(75) soni: <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar>.2026
5. Abdirasilov S., Tolipov N. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi". Toshkent, 2012.
6. Abdullayev, U. (2020). Tabiat va san'at: Rasmlarda real voqelik. O'zbekiston san'ati jurnal.
7. B. A. Xolbekova. (2026). "Plakat ishlashning o'ziga xos jihatlari" "SCIENCE SHINE" xalqaro ilmiy jurnali
8. I.Kamolov. Ta'lim jarayonida ukuvchilar ijodiy kobilyatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari. Electron Library Karshi EEI 1 (02) 2011.